

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "INVESTITSIYA VA INVESTITSIYA FAOLIYATI TO'G'RISIDA" GI QONUNI VA JAHON BANKINING TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALAR BO'YICHA YO'RIQNOMALARINING QIYOSIY TAHLILI

Yaqubova Guli Qosimboy qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

Email: karomatbekcanov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi kunda har bitta mamlakatda rivojlanayotgan va ularning iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga o'z hissasini qo'shayotgan investorlar va ularning har bitta mamlakataga kiritayotgan sarmoyali investitsiyalari, shuningdek ushbu investitsiyalarni jalg etishga sabab bo'lgan mamlakatimizda qabul qilingan "**Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida**"gi Qonunni va **Jahon bankining invistitsiyaviy munosabatlarni bevosa tartibga solishga qaratilgan yo'riqnomalarining** o'xshash hamda faqrli jihatlari, qiyosiy tahlil qilish orqali yoritiladi. Xorijiy investorlarning huquq va majburiyatlarini milliy qonunchilik va xalqaro investitsiya to'g'risidagi qonunchilik bilan tartibga solish bugungi xalqaro invesitisiyaviy munosbatlarni hal qilishda juda muhim.

Kalit so'zlar: investor, chet ellik investorlar, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari, chet el investitsiyalari, investitsiya shartnomalari (FDI, MTI, BIT).

ABSTRACT

This article is about the investors who are developing in each country today and contributing to their economic development, and their capital investments in each country, as well as the reason for attracting these investments, adopted in our country "Investment and investment activities are correct" Similar and different aspects of the Law and the guidelines of the World Bank aimed at direct regulation of investment relations are highlighted through a comparative analysis. Regulation of the rights and obligations of foreign investors by national legislation and legislation on international investment is very important in solving today's international investment relations.

Key words: investor, foreign investors, foreign direct investment, foreign investment, investment agreements (FDI, MTI, BIT).

KIRISH

Iqdisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida invesitsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamalakatning rivojlanish darajasi, ya'ni iqtisodiyotining rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsiya munosbatlarni

tartibga soladigan huquqiy hujjatlar va ularning qay darajada xalqaro invesitsiya qonunchiligiga mosligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi mustaqil suveren mamlakat sifatida tan olinganidan keyin investitsiya borasida ham anchagina normativ hujjatlar ishlab chiqsa boshladi. Ko'plab Yevropa va Osiyo davlatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri investitsiya shartnomalari tuzildi va katta miqdordagi investitsiyalar jalb etildi. Shular natijasida, investitsion faoliyat borasida O'zbekiston, Markaziy Osiyo davlatlaridan bir munkha oldinlab ketdi¹.

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI

Xususan, O'zbeksiton Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini oqilona va adolatli tarzda olib borish va uni rivojlantirish, bevosita xalqaro va milliy investitsiyalarni jalb etish borasidagi hujjatlarning, qay darajada **Jahon bankining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha yo'riqnomalariga** mosligi bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida tashkil topganidan so'ng o'zining iqtisodiy yo'naliшlarini belgilay boshladi va iqsodiyot sohasini investitsiya munosabatlari bilan rivojlantira boshladi. Natijada, investitsiya munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan qonunlar va qonunosti hujjatlar ishlab chiqildi. Bunga misol qilib, "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi Qonunni, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida" gi Qonunni hamda "**O'zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish to'g'risida**" gi **Prezident Qarorini** keltirishimiz mumkin. Ushbu milliy qonun hujjatlarining maqsadi bir so'z bilan aytganda, iqtisodiyotni chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalar bilan yanada yuqoriq pog'onaga ko'tarish.

Xalqaro investitsiya loyihalarini amalga oshirish ketayotgan bir paytda, Xalqaro invesitsiya huquqi manbalarining o'rni yeatrli darajada. Ushbu manbalarga misol qilib, asosan host state va davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xorijiy investorlar o'rtasida tuziladigan **FDI, MIT, BIT shartnomalarni**², shuningdek **Jahon bankining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha yo'riqnomalari**. Hamda nizo kelib chiqqan payti yordam beradigan **Washington Konvensiyasini**, hamda investorlarga beriladigan kafaolatlarni o'z ichida aks ettirgan **Seul Konvensiyani**³ ketirib o'tishimiz joiz. Ushbu xalqaro investitsiya huquqining manabalari milliy qonunchiligimiz bilan o'xhash bo'lishi, ya'ni milliy qonunchilikdan, xalqaro manbalar ustun turadi va milliy qonunchilik ularga mos bo'lishi kerak taomilida ishlab chiqilishi lozim.

¹ Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya». 303 b.

² Norfadhilah Mohamad Ali, Appropriate Comparator in National Treatment under International Investment Law: Relevance of GATT/WTO, EU and International Human Rights Jurisprudences. – 2014. – 162 p.

³ OECD(2004) "Most-Favoured-Nation Treatment in International Investment Law", OECD Working Papers on International Investment, 2004/02. – 2 p.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fikrimizni davom ettirib shuni aytishimiz mumkinki, Jahan bankining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalaridan birida “**Xorijiy investorlar, milliy investorlarga berilmagan imtiyozlardan foydalana olamaydilar**”⁴ kabi qoida o'rnatilgan. Vaholangki “**Invesitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida ”gi Qonunning 34-moddasi 5-qismida** quyidagicha norma joy olgan. “**To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalg qilgan holda tashkil etilgan va qonunchilik bilan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashgan korxonalarga O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar yuzasidan imtiyozlar qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi**”⁵. Ushbu ikkala normani bir-biriga taqqoslaydigan bo'lsak, O'zbekiston milliy qonunchiligi, xalqaro hujjatni inkor qilgan holda, xorijiy investorlarga mahalliy investorlardan ko'proq imtiyozlarni belgilashi mumkinligini aytmoqda. Vaholangki, ushbu imtiyoz va preferensiyalarning qo'llanilishi O'zbekiston uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Sababi, keragidan ortiq imtiyozlarning investorlarga berilishi foydadan ko'ra zararliroq. Agar investorlar o'z maqsadiga erishganidan so'ng barcha narsalarini, keltirgan uskunalaridan tortib, ishlab chiqargan narsalarigacha, o'zining mamlakatiga olib ketishi mumkin. Buning natijasida bizning olayotgan foydamiz, o'zimizga zarar qilish orqali boshqa davlat foydasiga o'tib ketadi.

Shuni ham takidlash joizki, “**Investisiya va investitsiya faoliyati to'g'risida ”gi Qonunning 60-moddasi** investitsiya faoliyatini cheklash, to'xtatib turish yoki tugatish haqida bo'lib. Ushbu moddaning 2-qismida “**Favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va sog'lig'iga boshqa haqiqiy tahdidlar yuzaga kelganida, investisiya faoliyatini cheklash, to'xtatib turish yoki tugatish mumkin**”ligi ko'rsatib o'tilgan. Jahan bankining “**To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni qo'llash bo'yicha 1992-yilgi yo'riqnomaning 5-bandida ”Davlat siyosati, sog'liqni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtai nazaridan milliy investitsiyalarga nisbatan qo'llaniladigan cheklovlar xorijiy investitsiyalar uchun bir xilda qo'llaniladi**”⁶- degan qoida joy olgan.

Boshqa tomondan olib qaraganda, bunday cheklovlarining mahalliy va xorijiy investorlarga nisbatan bir xilda qo'llanilishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Sababi, biz aytib o'tgan vaqtida cheklovlarining bo'lishi xorijiy investorlarning ommaviy chiqishlari va namoyishlariga sabab bo'lishi, foyda olish maqsadiga bevosita ta'sir o'tkazishi, shu bilan birga, ushbu holat huquqbazarlik sifatida qaralishiga olib kelishi

⁴https://www.law.umich.edu/facultyhome/drwcasebook/Documents/Documents/2.5_World%20Bank%20guidelines%20on%20the%20treatment%20of%20FDI.pdf

⁵ <http://lex.uz/docs/-4664142>

⁶ <https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements/treaty-files/2815/download>

mumkin. Bu kabi holatlarning oldini olish uchun uchun ikkala investorlarga bir xil imkoniyat berilgani maqsadga muvofiq.

Ikkinchi tomondan nazar tashlaydigan bo'lsak, **Jahon bankining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha yo'riqnomalaridan** birisida, “ xorijiy investorlarga, investitsiyalarning samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan darajada chet ellik xodimlarni ishga yollashga ruxsat berish majburiyati host statega (investisiyani qabul qiluvchi davlat) yuklatilgan”⁷. Ammo, bizning qonunchiligimiz buni istisino qiladi. **“Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida” gi Qonunning 42-moddasida** O'zbekiston hukumati bilan tuziladigan investitsiya shartnomalarida bo'lishi, kerakli bo'lган shartlar keltirilgan bo'lib, ulardan bittasi **“chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasi fuqarolari orasidan ishchilarini yollash va o'qitishga doir majburiyatları”** keltirib o'tilgan. Ushbu xalqaro yo'riqnomaga va milliy qonunchilik bir-birini rad qilmoqda. Buning sababi esa, milliy qonunchilikning, xalqaro yo'riqnomaga moslashtirilmaganligidir. Ammo, yuqoridagi holat O'zbekiston Respublikasining mehnat munosabatlariga ijobiy ta'sir qiladi, chunki O'zbekiston Respublikasini ishsiz aholisi ish bilan taminlanadi va iqtisodiy soha bilan birga ijtimoiy soha ham rivojlanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida investorlarga berilayotgan imkonyatlar, mahalliy investorlar va xorijiy investorlarning huquqlari va majburiyatları tengligini ko'rsatmoqda. Aynan, mana shunday adolatga asoslangan muhitni yaratishda **“Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida” gi Qonunning o'rni o'ziga xos.** Chunki, **“Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida” gi qonuning 4-moddasida** investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari ko'rsatilgan bo'lib;

- 1- qonunniylik**
- 2- oshkoraliq va ochiqlik**
- 3- investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligi**
- 4- adolatlilik va investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi;**
- 5- investorlarga nisbatan kansitishga yo'l qo'ymaslik**

Ushbu prinsiplar investitsiya faoliyatining asosiy poydevori bo'lib hisoblanadi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Sababi, ushbu prinsiplar orqali investitsiyaviy munosabatlarni to'la tartibga solishimiz mumkin. Bundan tashqari barcha qonun hujjatlari ushbu prinsiplarga asosan ishlab chiqilishi lozim. Ushbu prinsiplarning juda muhim ekanligi, Jahon bankining investitsiyaviy munosabatlarga bag'ishlangan yo'riqnomalarida ham joy olgan. Unda quyidagicha gaplar yozilgan **“Har bitta davlat o'z hududida boshqa har qanday davlat fuqarolari tomonidan o'rnatilgan investitsiyalarga nisbatan adolatli va teng huquqli rejimni qo'llaydi”**⁸. Ushbu

⁷ Foreign Direct Investment in Developing Countries on JSTOR

<https://www.jstor.org/stable/4192323>

⁸ Principles of International Investment Law, R. Dolzer and Ch. Schreuer, 1st ed.

qoidadan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, investitsiya faoliyatining prinsiplari aynan, Jahon bankining yo'riqnomalaridan kelib chiqqan holda o'rnatilgan va hozirgacha ushbu prinsiplarga amal qilib kelinmoqda. O'zbekiston investitsiyaviy faoliyatini tartibga asoladigan prinsiplari, xalqaro huquq normalariga to'liq mosdir - degan qarash kelib chiqishi, qiyin emas.

Hozirgi raqamli iqtisodiyotning integretsiyalashuvi jarayonida, xorijiy investorlarning yurtimizga ko'plab, tashrif buyurishlari, aynan investorlarga berilgan kafolatlar, preferensiyalar va ularning manfaatlariga xizmat qiladigan qonun va qonunosti hujjatlarining borligi va albatta, ularning xalqaro normalarga mosligidadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pandemiya, chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozlar bo'lishiga qaramasdan, O'zbekiston taraqqiyotga mashaqqatli va jasoratli mehnati tufayli erishmoqda. Sababi, iqtisodiyotimizga 2022-yilning o'zida 8 milliard dollor to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollorga yetdi. Vaholangki, Prezidentimizning 2023-yilgi Murojaatnomasining 6-yo'nalishi "Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilash"⁹ deb nomlandi. Bu yo'nalishdan maqsad, YIMni yanada oshirish bilan birgalikda, 2023-yilda qariyb 30 milliard dollar sarmoya jalb qilinishi, shundan 25 milliard dollar xususiy investitsiyalar qo'lida to'planishidir. Xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'tgan yillarga qaraganda, anchagina oshganligining sababi, investisiya faoliyatida olib borilayotgan tinimsiz islohatlar, loyihalar va ularni tartibga soladigan hujjatlarning xalqaro normalarga rioya qilgan holda, xorijiy investorlarga mahalliy investorlardan ko'ra, imtiyoz va preferensiyalarning ko'pligida, hamda davlatimizda investorlarga yaratilgan imkoniyatlarning xusan, soliq, bojxona, investitsiyalar ekspropriatsiya qilinganda yetarlicha kompensatsiya olishga oid bo'lgan huquqlarning borligida. Qonunchilikda yuqorida biz ko'rib o'tgan bo'shliqlarning o'rni, Jahon bankining yo'riqnomalariga to'g'ri moslashtirilsa, o'ylaymanki YIMimiz o'tgan olti yildagiga nisbatan 30%ga oshgan bo'lsa ¹⁰, milliy qonunchiligidagi bo'liqlar to'ldirilsa 40%ga oshganini ko'ramiz. Chunki, aynan xorijiy investorlar har doim uning huquq va manfaatlari to'laqonli himoya qilinadigan, ma'lum bir foydani olganidan yoki o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishganidan so'ng, kiritgan investitsiyalaridan oladigan foydasini, o'zining davlatiga olib ketish niyatida bo'ladi. Shuning uchun ham ular iqtisodiyoti va investitsiya faoliyati yaxshi rivojlangan davlatlargagina investitsiya kiritishadi. Vaholangki, ularning qaysi davlatga

- 2008. - 179 p.

⁹ Послание Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева на 2023 год (+полный текст) - Review.uz <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

¹⁰ XORIJJIY INVESTITSIYALARING MILLIY IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-investitsiyalarning-milliy-iqtisodiyotini-rivojlanitirishda-tutgan-o-rni-va-ahamiyati/viewer>

investitsiya kiritish yoki kiritmasligi o'zlarining qo'lida. Biz olib borgan qiyosiy tahlil ham aynan shunday muammolarni o'zida aks ettirgan.

Ikkinchidan, investisiya va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi hujjatlar ko'pligi sababli ularning o'rtasida ko'plab kolliziyalar uchrab turibdi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa, tizimlashtirilgan bitta Investitsiya Kodeksi ishlab chiqilishi tarafboriman. Sababi, agar Investitsiya Kodeksi ishlab chiqilsa, ushbu kodeksda, nafqat investisiyaviy munosbatalar balki yuqorida aytib o'tganimdek, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan munosbatalar ham yoritiladi. Ayanan, Investitsiya Kodeksida chet el investisiyalari, to'g'ridan-to'g'ri chet el investisiyalariga oid alohida bob, bo'limlar tashkil qilinsa, ular bilan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish ham boshqa usulda amalga oshirilishi belgilanib qo'yiladi. Bu biz uchun faqat foydali bo'ladi . Hozirgi raqamli iqtisodiyot ham aynan shunday tizimlashtirilgan qonun hujjatlariga muhtoj.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Investisiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2021-2023 yillarga mojallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4937-son qarori.
4. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investisiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya». 303 b.
5. Norfadhilah Mohamad Ali, Appropriate Comparator in National Treatment under International Investment Law: Relevance of GATT/WTO, EU and International Human Rights Jurisprudences. – 2014. – 162 p.
6. Principles of International Investment Law, R. Dolzer and Ch. Schreuer, 1st ed. – 2008. – 179 p.
7. OECD(2004) "Most-Favoured-Nation Treatment in International Investment Law", OECD Working Papers on International Investment, 2004/02. – 2 p.
8. XORIJIY INVESTITSIYALARING MILLIY IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-investitsiyalarning-milliy-iqtisodiyotini-rivojlantirishda-tutgan-o-rni-va-ahamiyati/viewer>
9. Послание Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева на 2023 год (+полный текст) - Review.uz
10. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>
11. Foreign Direct Investment in Developing Countries on JSTOR <https://www.jstor.org/stable/4192323>
12. <https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements/treaty-files/2815/download>
13. https://www.law.umich.edu/facultyhome/drwcasebook/Documents/Documents/2.5_World%20Bank%20guidelines%20on%20the%20treatment%20of%20FDI.pdf